

"Bir sulola tarixi - Zokirovlar" nomli ko'rgazma tashkil etildi

O'zbek xalqi qadimdan musiqani yaxshi ko'radi. Yurtimizda uyushtiriladigan bayramlar, tadbirlar, kechalarni ajoyib qo'shiqlar va jozibali raqlarsiz tessavvur qilish qiyin. Musiqa san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan Rajabiylar, Otajonovlar, Zokirovlar kabi sulolalar haqida xalqimiz juda yaxshi biladi. Ana shunday ijodkor sulolalar ichida Zokirovlar sulolasi alohida o'rinni tutadi.

O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyi filiali Toshkent muzeyida "Bir sulola tarixi - Zokirovlar" nomli ko'rgazma tashkil qilindi. Unda xonanda, afsonaviy "Yalla" ansamblining rahbari, O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov, Botir Zokirov fondining boshlig'i Ravshan Zokirov ishtirot etdi.



Ko'rgazmada sulola vakillari aks etgan 20 yaqin tarixiy fotosuratlar va 10 ga yaqin hujjatli filmlar namoyish etildi.



